

**BOLTA YORIY IJODIGA BIR NAZAR****Murtazayev Babanazar Xuramovich**

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Termiz davlat universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13137476>

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada viloyatimizning ko'zga ko'ringan shoiri Bolta Yoriy ijodi haqida so'z yuritilib, ayrim asarlari tahlil nazaridan o'tkaziladi. Bu inson vohamiz matbuoti tarixida alohida maqomga ega jonkuyar xodimlardan biri edi, o'z faoliyatini "Surxon tongi" gazetasi tahririyatda adabiy xodimlikdan boshlagan. Badiiy ijodda ham o'ziga xos jihatlarni namoyon etar edi, bu inson qalamiga mansub asarlar ko'p jihatdan Surxon adabiy muhitini anglashda asqotadi. Bolta Yoriy ijodiy ishni ilmiy ish bilan baqamti olib bordi, u qalbi jo'shqin ijodkor bo'lish barobarida beqiyos murabbiy, yetuk muallim va zahmatkash olim ham edi. Shoirning ilk to'plami 1979 yili "Bobotog' qo'shiqlari" nomida nashr etilib, unda 21 ta katta-kichik she'rlar jamlangan edi. Shoir xususidagi boshqa ma'lumotlarni maqolaning o'zidan topasiz.*

***Kalit so'zlar:** shoir, adib, yozuvchi, muallim, munaqqid, ijod, she'r, asar, badiiy, olim, muxbir, iste'dod.*

**A GLANCE AT BOLTA YORI'S CREATION**

***Abstract.** This article talks about the work of the prominent poet of our region, Bolta Yori, and analyzes some of his works. This man was one of the enthusiastic employees with a special status in the history of the press of our oasis, he started his career as a literary employee in the editorial office of the "Surkhan Tongi" newspaper. He also showed his own characteristics in his artistic creation, and these works belonging to the pen of a human being are missing in many ways in the understanding of the literary environment of Surkhan. Bolta Yori combined creative work with scientific work, he was an incomparable coach, accomplished teacher and hard-working scientist in addition to being a passionate creator. The poet's first collection was published in 1979 under the name "Bobotog's Poems", which included 21 large and small poems. You will find other information about the poet in the article itself.*

***Key words:** poet, writer, teacher, critic, creativity, poem, work, art, scientist, reporter, talent.*

**ВЗГЛЯД НА ТВОРЕНИЕ БОЛТА ЁРИ**

***Аннотация.** В статье рассказывается о творчестве выдающегося поэта нашего региона Болта Ёри и анализируются некоторые его произведения. Этот человек был одним из активных сотрудников, имеющих особый статус в истории печати нашего оазиса, он*

начал свою карьеру литературным сотрудником в редакции газеты «Сурхан Тонги». Он также проявил свои особенности в своем художественном творчестве, и эти произведения, принадлежащие перу человека, во многом отсутствуют в понимании литературной среды Сурхана. Болта Ёри совмещал творческую деятельность с научной работой, он был не только страстным творцом, но и несравненным тренером, опытным педагогом и трудолюбивым ученым. Первый сборник поэта вышел в 1979 году под названием «Стихи Боботога», в который вошло 21 большое и маленькое стихотворение. Другую информацию о поэте вы найдете в самой статье.

**Ключевые слова:** поэт, писатель, писатель, педагог, критик, творчество, стихотворение, произведение, искусство, учёный, репортер, талант.

Bolta Yoriy (1941 yil, 1 iyun, Qumqo'rg'on, Arslonboi qishlog'i, 23.10.2020 – Termiz) taniqli jurnalist, o'tkir publitsist, ajoyib shoir, yetuk muallim, yirik olim Bolta Yoriy o'rta maktabni 1959 yilda tugatib, bir yil o'qituvchilik qiladi. U 1960–1965-yillarda Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universitetining o'zbek filologiyasi bo'limida tahsil oladi. Universitetni tamomlab Surxondaryo viloyati “Surxon tongi” (sobiq “Lenin bayrog'i”) gazetasi tahririyatida adabiy xodim, bo'lim mudiri, muharrir o'rinbosari vazifalarida faoliyat ko'rsatdi, birmuncha muddat Denov tumani gazetasida muharrir bo'ldi. Bolta Yoriev 1990-yildan Termiz davlat universitetining “Tillar va nutq madaniyati” kafedrasida o'qituvchisi, 1993-yil sentyabridan 1999-yil fevraligacha O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Surxondaryo viloyat bo'limi mas'ul kotibi bo'lib, vohadagi ijodkor iste'dodlarni qo'llab-quvvatlashda o'z sa'y-harakatlarini ayamadi. Bu inson vohamizning jonkuyar fidoyilaridan biri, ayni zamonda O'zbekiston jurnalistlar uyushmasi (1972), O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi (1981) a'zosi, filologiya fanlari nomzodi (1979), dotsent (1994) hamdir. Bolta Yoriy uzoq yil (2003–2011)lar ko'p tirajli “Termiz universiteti” gazetasining bosh muharriri vazifasida faoliyat yuritdi va yosh ijodkorlarning yangi-yangi she'rlarini gazeta sahifalarida e'lon qilishda bosh-qosh bo'ldi. Bolta Yoriy 2013–2014-yillar “Termiz oqshomi” gazetasining muharrir vazifasini bajaruvchisi sifatida faoliyat olib borib, gazetaning mazmunli va saviyali chiqishida o'z tajribalarini ishga soldi. U shu kecha-kunduzda ham qadrdon “Termiz oqshomi” gazetasida faoliyatini davom ettirib, gazeta mazmunining yuksalishida, g'oyaviy shakllanishida o'z hissasini qo'shib kelmoqda. Shoirning she'rlari respublika miqyosida e'lon qilingan “Guldasta” (Toshkent, 1972), “Yoshlik bayozi” (Toshkent, 1976), “Kamalak” (Toshkent, 1983), “Oltin belanchak” (Toshkent, 1986), “Senga intilaman” (Toshkent, 1987), “Boychechak” (Toshkent, 1987) va Termizda chop etilgan “Debocha” (1989),

“Vatan vasfi” (1996) kabi jamoaviy to’plamlarda bosildi. Uning Surxon vohasi kishilari haqidagi ajoyib lavhalari “Surxondaryo ilg’orlari” (1972), “O’zbekiston kolxoz va sovxozlari tarixi” (1982–1989) kitoblarida e’lon qilingan.

Keyingi yillarda shoir boshqa ijodkor do’stlari bilan hamkorlikda “Fazilatli yurtdoshlar” (Termiz, 1994), “Vatanni sevmoq iymondandur” (Termiz, 1995), “Adolat tarozisi” (Termiz, 1995), “Muhabbatim tanho sen dedim” (Termiz, 1996), “Tutash qalblar” (Termiz: Jayhun, 1996. –32 b.), “Shamchiroq” (Termiz, 1997), “G’aning qo’shiqlari” (Termiz, 1997), “Sochlarini shamol to’zg’itgan” (Termiz, 1997), “Oqibat” (Termiz, 1997.–52 b.), “El ardoqlagan general” (Termiz, 1999), “Elim deb, yurtim deb yashasa odam” (Toshkent, 2001), “Elparvarlik” (Qarshi, 2007) kitoblarini chiqardi. Shuningdek, uning “Bobotog’ qo’shiqlari” (–T.: Yosh gvardiya, 1979.–28 b.), “Senga sevgi izhor qilgan kun” (1990), “Kuzda uchgan turnalar” (Termiz, 1995) “Mehribon nigoh” (Termiz: Jayhun, 1998. –60 b.), “Qora oltin” ijodkorlari” (Termiz, 1999), “Alpomish va Normo’min Suhrob” (Samarqand: Sug’diyon, 1999. –84 b.), “Mehribon” (Termiz, 2000), “Umidli dunyo” (Toshkent, 2001), “Ko’ngil ilinjlari” (Qarshi: Nasaf, 2007. –56 b.), “Hayrat va G’ayrat” (Toshkent, 2008), “Karvon yo’li” (Termiz, 2009), “Yor o’tgan ko’chalarda” (Saylanma. I jild. Toshkent: Muharrir, 2011. –380 b.), “Arslonboyi gurunglari” (Saylanma, II jild, Toshkent: Muharrir, 2011. –408 b.), “Baxshi – shoir olami” (Toshkent: Tafakkur, 2013. –96 b.) kabi alohida she’riy va nasriy majmualari ham mavjud.

Bolta Yoriy ijodiy ishni ilmiy ish bilan baqamti olib boradi, u qalbi jo’shqin ijodkor bo’lish barobarida beqiyos murabbiy, yetuk muallim va zahmatkash olim hisoblanadi. Olim sifatida qator ilmiy hamda ilmiy-uslubiy qo’llanma, dastur va ishlanmalarni ommalashtirdi, chunonchi “Ifodali o’qish metodikasi” (Termiz, 1992), “Nutq o’stirish metodikasi” (Termiz, 1994), “Yozma nutq savodxonligi” (Termiz, 1996), “Boysun toponimikasi” (Termiz, 1997), “Qayta hikoya qilish” (Termiz, 1999) “Badiiy asar tilini o’rganish” (Termiz, 1999), “Alpomish talqinlari” (Termiz, 1999), “Nutq o’stirish – maktabgacha tarbiyaning o’zak masalasi” (Termiz, 2000), “Nutq odobi” (Toshkent, 2002), “O’zbek tili tarixi” (Toshkent, 2006) shular jumlasidandir.

Bolta Yoriyning ilk to’plami “Bobotog’ qo’shiqlari” (1979) deb nomlanadi, unga shoir Normurod Narzullaev so’z boshi yozgan, unda katta-kichik yigirma bitta she’rlar jamlangan. To’plam majnuntolga bag’ishlangan to’rtlik ila ibtido topadi:

Bunchalar bardoshli majnuntol,  
Qishda ham xayolga tolibdi.  
Hali ham kutadi u visol,  
Soch esa oqarib qolibdi.

Diqqat qilinsa, shoir oddiy voqea vositasida kishini falsafiy dunyoga yetaklamoqda, birgina



majnuntol, uning qishdagi bargsiz, o'z yaproqlari uni tark etishi holati tasviri bilan tabiatning almashishi, insonlarga xos yoshlik va qarilikka alohida urg'u berilmoqda. Katta bir voqea, hodisa mo'j'az to'rtlikda jamuljam etilishining o'zi tahsinga loyiqdir. To'rtlik sirtidan sho'xchan, o'ynoqi ko'rinsa-da, uning chuqur falsafiy mazmuni va g'oyasi o'ziga xoslik kasb etishini kuzatamiz. "Bobotog' qo'shiqlari" to'plamidan joy olgan boshqa to'rtlikda ham hayotiy falsafa ustuvorlik qiladi:

Yomg'irdan maysalar yayraydi yana,  
Quyoshdan bo'salar ko'ngli tusadi.  
Zavqidan ko'zimda yonar afsona,  
Ko'nglim shu maysalar kabi o'sadi.

Navbatdagi bir to'rtlikda mehnat va inson mavzui qalamga olinib, inson mehnat tufayli shavkatu shonga erishadi degan falsafiy talqin misralarga jo'shqinlik bag'ishlaydi:

Mehnatkash ko'milsin shavkatga, shonga,  
Dovrug'i aylansin qo'shiq, dostonga.  
Doimo gullasin saodat bog'i,  
Oltin darvozasin ochib insonga.

To'plam "Daraxtlar" she'ri bilan intihosiga yetadi, uning dastlabki satrlariga diqqat qiling:

Kuzak ham olmoqda so'nggi nafasini,  
Shovullab to'kilgan barglar parishon.  
Kuylashar sarhisob damlar qissasin,  
Qishning peshvosidan berishib nishon.

E'tibor berilsa, fasllar almashuvining xos jihatlari mos jilolarda tarannum etilib, avvalo falsafiy va ayni zamonda mantiqiy bayonini topmoqda. "Hayotga nido, o'z eliga muhabbat, e'tiqod, kelajakka umid, istiqbol ishqida yonib yashash va kuylash – Bolta Yoriev she'rlariga xos fazilat"dir deganida Normurod Narzullaev hech mubolag'asiz tamomila haqlidir. "Bobotog' qo'shiqlari"dagi "Govurgon" she'ri xalq rivoyati asosida qalamga olinib, har bir davr uchun azaliy mavzu hamda muammo bo'lmish keksalik va yoshlik (ota va bola) munosabatlariga javob istaladi. Keksalik ota va navqiron o'g'ilning ajdodlardan meros bid'atli an'ana asosidagi to'qnashuvi, nihoyat ana shu mash'um an'anaga xotima qo'yilishi tasviri she'riy afsona ruhiga ko'tarinkilik bag'ishlaydi.

Keyingi yillarda shoirning "Yor o'tgan ko'chalarda" (2011) va "Arslonboyi gurunglari" (2011) nomli saylanmalarining sheriyat ixlosmandlariga taqdim etilishi quvonchli hodisa bo'ldi. Saylanmalarda shoirning turli yillarda ijod etgan sara she'rlari kiritilgan va ular she'riyat tur hamda navlari bo'yicha boblarga taqsimlanadi. Chunonchi "Yor o'tgan ko'chalarda" to'plamining

mundariyasi quyidagi manzaraga ega: “Bashar, yor va diyor kuylari” (–B. 6–179.), “Hajv, hazil va bag’ishlovlar” (–B. 180–213.), “Rivoyatlar, hikoyatlar” (–B. 214–239.), “Qo’shiqlar” (–B.239–266.), “Bolalarga” (–B. 266–280.), “Turkumlar” (–B. 281–318. Uch qismga bo’linadi: “Latviya yo’llarida” –B.281–302; “Balaton bo’ylarida” –B. 302–211; “Qurbon aytur” (ya’ni Qurbon Amirqulov. –B.311–318.), “Sonetlar” (–B.318–369). Yuqoridagi to’plamdan joy olgan “Jarqo’ton” (manzuma, –B.59–62.), “Yetti qiz” (–B.107–109.), “Dehqon bahori” (–B.129–130.), “Ov va she’r” (–B.132.), “O’lkam tog’lari” (–B.134.), “Tabiat – ona” (–B.146–147.), “Qariyalar qadrlangan yurt” (–B.148–149.), “Termiz tuprog’i” (–B.152–153.), “Hayot manbai” (–B.155–156.), “Ona tilim” (–B.160–161.) nomli va boshqa talay she’rlar o’z g’oyaviy mazmuni bilan alohida ajralib turadi. To’plamning “To’rtliklar” qismi (–B.137–146) da 1965–1997-yillar oralig’ida ijod etilgan roppa-rosa oltmish oltita to’rtlik mavjud bo’lib, ushbu to’rtliklarda inson hayoti, uning mehnati, uning o’y-andishalari, xayolot olamidagi goh ziddiyatli, goh beqaror holatlar qalamga olinadi. Ba’zi to’rtliklarga nazar tashlaylik:

Murodga intilib, soy bo’lib o’tdim,  
Yaxshilarni yo’qlab, joy bo’lib o’tdim.  
Dunyoga hirs qo’ymay, ko’zim to’q tutib,  
Boriga shukur deb, boy bo’lib o’tdim.

\*\*\*\*\*

Gul bahor sofligin madh etgan asar,  
Gul – noyob hislardan berguvchi xabar.  
Umrni umr deb mumkinmi sanash,  
Gul kabi maftunkor bo’lmasa agar.

\*\*\*\*\*

Rost so’zning bo’lsa-da yomg’iri, do’li,  
Ezgulik bog’iga eltadi yo’li.  
Yolg’on so’z qirqadi kamon poyini,  
Chohlarga tortadi beshafqat qo’li.

“Yor o’tgan ko’chalarda” to’plamida Bolta Yoriyning rus shoirlari Sergey Yesenin (1895–1925), Anna Axmatova (1889–1966), Ilya Selvinskiy (1899–1968), ukrain shoirlari Lesya Ukrainka (1871–1913), Platon Voronko (1913), Dmitro Pavlichko (1929), ispan shoiri Luis de Gongora (1561–1627), meksikalik shoira Xuana Ines de la Krus (1651–1695), rumin shoiri Tudor Argezi (1880–1967) va boshqalardan qilgan ajoyib tarjimalariga ham o’rin berilgan.

Bolta Yoriy mumtoz adabiyotni sevadi, uni nozik his etadi, hatto xuddi shu yo’lda “Muhabbatnoma” ohanglari nomli alohida rukn yaratishga chog’langan, uning shoir Xorazmiy

(“Muhabbatnoma” asarining 1353 muallifi) uslubida bitgan “yaratdi” radifli she’ri buning yorqin misolidir:

Olloh sizni yuzi oydin yaratdi,  
Sizni oydin, bizni maftun yaratdi.  
Sizga husnu otash berib, bizlarni  
Parvonadek kuysin uchun yaratdi.  
Kokilingiz zanjiriga band aylab,  
Sizni sayyod, bizni tutqun yaratdi.  
Ishq selida g’arq bo’lsin deb bizlarni,  
Sochingizni to’lqin-to’lqin yaratdi.  
Ona yurtning fidoyisi bo’lsin deb,  
Bizni Hakim, sizni Barchin yaratdi.  
Keng ummonda topishsin deb oqibat,  
Sizni Sayxun, bizni Jayhun yaratdi.

Bolta Yoriy keyingi paytlarda baxshichilikka moyilroq yo’nalishda ijod qilish ishtiyoqi bilan dostonlar yaratishga intilmoqda va bu borada ma’lum yutuqlarni qo’lga kiritishga muvofiq bo’ldi. Uning “Alpomish va Normo’min Suhrob” (– Samarqand: Sug’diyona, 2000. – 84 b.) dostoni xuddi shu yo’nalishda yaratilgan bo’lib, unda qatag’on yillari voqealari ifodasini topgan. Doston xalq baxshilari uslubida bitilgan, unda nasr va she’r aralash, nasr dostonlarga monand qofiyali tuzilgan, she’riy o’rinlar ayni xalq baxshilari uslubiga mos. Doston ushbu tarzda boshlanadi: “O’, jo’ralar, bir zamonlar bu yerlarda Boshmarkaz degan davlat o’tdi, har davlatdan o’zicha basavlat o’tdi. Uning o’ziga yarasha gapga yetari ham bo’ldi, aldarni-qaldam ketari ham, kuni zo’rg’a o’tari ham, undan betari ham bo’ldi. Bu shunday davlat bo’ldiki, ushlaganining yetmish ikki tomirini zirqiratdi, o’ziga yoqmaganni tariqday tirqiratdi, sob bir elboshi bahodirlarni “xalq dushmani” deb, bola-chaqasini chirqiratdi”. Dostondagi she’rlar ham baxshiyona, lekin uning vazni va qofiyasi she’riyat qoidalari asosida qurilgan:

Gapi ko’pdir kuygan qulning dilida,  
Men tug’ildim Sherobod – sher elida.  
Ajdodlarim bel bukilmaz mard o’tdi,  
Poyga qo’yib Boysun tog’in belida.  
Dovruqlari osmon qadar bu yurtning,  
Tafsiloti doston qadar bu yurtning.

“Alpomish va Normo’min Suhrob” dostoni ochig’ini aytganda istalgan baxshining dostoni bilan bellasha oladigan asar bo’lib, uning ijodkori iste’dodiga qoyil qoldiradi kishini. Buning siri



shundaki, ijodkor bolalik kezlari to'y-hashamlarda, turli yig'inlarda, xalq sayillarida, katta-kichik bazmlarda ko'plab baxshilar xonishini tinglagan va chuqur ta'sirlangan, albatta. Chunki tinglay bilishda va eshitishda, ayniqsa, uni anglashda ko'p gap bor, qolaversa, shoir qator xalq dostonlarini mutola qilganiga shubha yo'q. Bo'lmasa "Alpomish va Normo'min Suhrob" singari asarning dunyoga kelishi, yaratilishi yuz bermas edi, boisi xalq dostonlari yo'lida baxshiyona asar ijod etish oson ish emas.

Shoir saylanmasining ikkinchi jildi "Arslonboyi gurunglari" aynan "Alpomish va Normo'min Suhrob" dostoni ila boshlanishi (-B. 3-84) ham e'tiborli jihatlarni namoyon etadi. To'planning keyingi sahifalarida "Loviya ekayotgan chol" (-B.85-179), "Mehringga munosibimiz" (dramatik doston. -B. 180-246), "Arslonboyi gurunglari" (voqeiy hikoyalar, suhbatlar, rivoyatlar, hikoyatlar, hangomalar jamlangan.-B.249-398), "Kichik hikoyalar" (-B.399-404), "Do'stlar yodi" (-B.405-406) kabi boblar beriladi. Saylanma ijodkorning nasr bobidagi iste'dodi va iqtidori ham zinhor shoirligidan qolishmasliging to'liq isbotidir, desak zarracha mubolag'a qilmagan bo'lamiz. To'plam bag'ridagi nasr va nazmdan iborat "Loviya ekayotgan chol" nomli asarning qahramoni Kamolxon oramizda yashayotgan oddiy bir tadbirkor zamondoshimiz. Lekin Kamolxon el g'ami va yurt tashvishi bilan yashaydi, u kishilarga mehribon, o'z ishining mirishkori, atrof voqea-hodisalarga zinhor befarq emas. Kamolxonning bir mahalladoshi kayfda xira pashshadek kishilarning shirin suhbatini buzgani yotmanganday tag'in davradagilarni qatiq bilan mehmon qilaman deb uyiga taklif etadi. Kamolxon shunda shirakayf mahalladoshiga qarata: "Dasturxonningda qatig'ing bor-da, miyangning qatig'i yo'q", deya chiroyli dakki beradi. Shu o'rinda Kamolxon tilidan mayning ixtiro etilishi haqida bir rivoyat keltiriladi, qadimda bir olim mayni kashf qilib, buni shohga aytib maqtanibdi: "Men bir ma'jun topdim-ki, dononi nodon, qo'rzoqni botir, kambag'alni boy qiladi... Ishonmasangiz sinab ko'ring" debdi. Boshda ma'juni shohning dono vaziriga ichirishibdi, vazirning og'zidan bodi kirib, shodi chiqibdi, so'ng bir qo'rzoqqa ichirishgan ekan, u Rustami doston bo'lib, "hatto shohga ham dag'dag'a qila boshlabdi". Oxiri ma'juni bir kambag'g'alga ichirishsa, u shu darajaga borib yetibdiki, "...shohni mulozimlari bilan uyiga mehmondorchilikka taklif qila boshlabdi"(-B. 92).

Asarda "Kamolxonning suhbatlaridan" sarlavhasida qahramonning aytgan hikmatomuz gaplaridan namunalar beriladi, ular o'ta ibratli va har birimiz uchun asqotadi:

Nodonga hamroh bo'lmang. "Nodon keldi, deb xabar bersang, do'zax undan hazar qiladi", degan ekan mashoyixlar (-B. 175).

Yaxshilar bir luqma haromdan hazar qilishadi. Millionlab o'zlashtiruvchilar nega Xudodan qo'rqmas ekanlar?

Bu tutdan bir to'ysangiz, kunduzi ham yulduzni ko'raverasiz (-B. 177).

Ba'zan yashnab turgan hovli-bog'larni ko'rib, yayrab ketaman. Shunda: "Jannat qaerda? Desa, "Odamning qo'lida!" degim keladi (-B.178).

Yuqoridagilar Kamolxonning hayot tajribalaridan olgan ibratlari yoki turmush ko'rgan kishilardan eshitganlari bo'lishi ham mumkin.

Ikkinisi jildning nomi bilan ataluvchi ayni "Arslonboyi gurunglari" qismi Surxon baxshichiligida xizmati katta, el olqishshiga sazovor, lekin ijodidan namunalar aytarliq yetib kelmagan Poyon baxshi haqidagi "Chamanda o'sgan gul" nomli hikoya bilan boshlanadi. So'ng sodda va ravon tilda yozilgan og'a-ini Quadratboy, Yo'ldoshboy, Qulmurodboylar hayotida bo'lib o'tgan qiziq voqealar, g'alati hangomalar jamlangan "Ayriliq" badiasida ularning beg'ubor tuyg'ulari, samimiy o'y-fikrlari kitobxonga tortiq etiladi. Meyli, Karim, Chori, Ergash, Yo'ldosh polvonlarning sarguzashlarini hikoya qiluvchi sahifalar ham ancha qiziqarli, ta'sirli va taassurotga boyligi ila ajralib turadi. Xullas, katta-kichik hikoyalardan tashkil topgan "Polvonlik fazasi", "Karim polvon", "Tavakkal", "O'g'rilar hayoti" "Kichik hikoyalar" deb nomlangan qismlar o'quvchini muqarrar jalb etadi. "Hikmatli so'zlar, maqollar, ibratli qaydlar" qismi ham e'tiborli, ulardan ayrimlarini keltiramiz:

Bosh silovchi bo'lsa, bo'y o'sadi (-B.381).

Bozori yaqin boy bo'lmas.

Dunyo – qiziq, hisobi – buzuq.

Dehqon bo'lsa – xon, bo'lmasa – qon.

Davlat ishi – siyosat, unga qilma xiyonat(-B.382).

Ipak cho'ziladi, ip uziladi.

Ilm ko'pga, hunar ko'kka yetkazar (-B.383).

Karvonning tilini sarboni biladi (-B.384).

Ovsinlar inoq bo'lsa – osh ko'payar (-B.385).

Tarozini buzgan posangisi, qizini buzgan onasi.

Uyda bo'l, yo'lda bo'l, bir Xudoga banda bo'l (-B.386).

Eldan burun nog'ora, qo'ltig'ida zog'ora.

El o'g'risiz, qo'y bo'risiz bo'lmas (-B.387).

Qaynona qaynamasa, kelin aynamaydi.

Har yigitning rizqi – oltin (-B.389).

Bir suhbat chog'i Bolta Yoriyning o'zi hikoya qilib bergan edi, 70-yillar, to'g'rirog'i 1965 yili shoirning avji yoshlik yillari o'sha paytlardagi "Yosh Leninchi" gazetasi (10 mart soni)da uning "Surxon muddaosi" nomli she'ri bosiladi. Xalqimizning sevimli shoiri Maqsud Shayxzoda (1908 – 1967) har bir gazetani o'z odaticha sinchkov kuzatib o'qib borar ekan va "Yosh



Leninchi”da Bolta Yoriyning aytilgan she’rini o’qib qoladi hamda qattiq ta’sirlanadi. She’rning mavzui, mazmuni, mohiyati, ayniqsa, g’oyasi Maqsud Shayxzodaga juda yoqib tushadi va shoir qaysidir uchrashuvda surxondaryolik bir kishidan “sizlarda Bolta Yoriev degan shoir bor” deb so’rab qoladi hamda suhbatdoshini hayratga soladi. Chunki suhbatdosh shaxs Bolta Yoriy tanir va hali bitta bilib, bitta bilmagan yosh shoirni Maqsud Shayxzodadek atoqli shoir tilga olgani ushbu yurtdoshni to’lqinlantirib yuboradi, u bu gapni Bolta Yoriyga yetkazadi. Keyinchalik aniqlanishicha, Maqsud Shayxzodadek buyuk shoirning suhbatiga baxtiga musharraf bo’lgan inson Bolta Yoriyning hamkasbi Ne’mat Qurbonov ekan. Maqsud Shayxzoda o’shanda Bolta Yoriy singari iste’dodli bir shoirning paydo bo’layotganiga ishora qilgan bo’lsa, ne ajab! Ana endi Maqsud Shayxzodani to’lqinlantirgan va ta’sirlantirgan o’sha she’rning o’ziga murojaat qilsak:

Vodiyga mehrini to’kkanmi tog’lar,  
Ko’ksidan zavq bilan oqib kelasan.  
Sho’xlik-la tosh o’ynab chopganing chog’lar,  
Vodiy siynasini o’pib yelasan.  
Ey Surxon! Vodiyga oshiq qalbidam,  
Mehrim, muhabbatim go’yo bir jahon,  
Mening shu sevgimga o’xshaysan juda,  
Erka bolalikday mavjlanganing on.  
Ayt, Surxon, shavqingda pinhon qanday sir?  
Yo ahding behuda, bebosh jo’shmoqmi?  
O’lkamga fayz berar yashil dala-qir,  
Yo ahding bu fayzga hissa qo’shmoqmi?  
– Jadallab kelaman uzoq-uzoqdan,  
Yo’llar tashvishiga ko’rsatib bardosh.  
Elning g’ami bilan to’lqinlanaman,  
Uning oyog’iga qo’ygim kelar bosh.  
Xalqim bog’lab qo’ydi belimga belbog’,  
Pahlavon sanaldim, oshdi quvonchim.  
Mehrimni nur etib qabul qilgan chog’,  
G’urur-la chayqaldim, topib tayanchim.  
Asrlarni oshib oqib yotganman,  
Yurt bahra olmadi mendan buncha ham,  
Shu sabab qo’ynimda oqim bo’larman,  
Shu el baxti uchun oqmoq muddaom.

She'ring mazmuni o'z-o'zidan ayon, undagi g'oya va maqsad bayoni ham o'zini ochiqcha namoyon etmoqda, ortiqcha sharh yoki izohga u qadar zarurat yo'q.

### REFERENCES

1. Alpomish va Normo'min Suhrob. – Samarqand: Sug'diyona, 2000. – 84 b.
2. Yoriyev B. Bobo Rustam / Termiz oqshomi. –2005. –23 iyul.
3. Yoriyev B. Bobo Rustam / Termiz oqshomi. –2005. –29 avgust.
4. Yoriyev B. Turnalar uchaveradi / Termiz oqshomi. – 2008. – 8 dekabr.
5. Yoriyev B. Surxondaryo adabiy muhitining shakllanishida Tesha Saydaliyevning o'rni // Surxon vohasining ijtimoiy-iqtisodiy, moddiy va ma'naviy madaniyati. Respublika ilmiy-amaliy anjumani maqolalar to'plami. – Termiz: Universitet, 2011. – B.114–116.
6. Yoriyev Bolta. Yor yurgan ko'chalarda. (Saylanma) . –Toshkent: Muharrir, 2011. –380 b.
7. Yoriyev, Bolta. Arslonboyi gurunglari. (Saylanma). J. II.–Toshkent: Muharrir, 2011. – 408 b.
8. Yoriyev Bolta. Baxshi – shoir olami. – Toshkent: Tafakkur, 2013. –96 b.